

**MAKTABGACHA TA'LIMNI BOSHQARISH JARAYONIDA AXBOROT
TEXNOLOGIYALARINI QO`LLASH**

Sultanova Rozagul Ro'zmat qizi

*FarDU, talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlaririni muvofiqlashtirish
bo'limi bosh mutaxassis*

Axborot jamiyati vujudga kelishi bilan bog'liq bilimdonlik bu - yangi texnologiyalarni egallash, ularning qo'llanilishini, kuchi va zaif tomonlarini anglab yetish, OAV kanallari orqali tarqatilayotgan axborot va reklamaga tanqidiy munosabatda bo'lishga qodirlik demakdir.

Ta'lim tizimlarini isloh qilish sabablari va omillari ke-yingi yillarda chop etilgan ilmiy ishlar turkumida batafsil va asosli tahlil qilingan (R. Ahlidinov, R. Jo'raev, U. Inoyatov, Sh. Qurbonov, M. Quronov, X. Rashidov, E. Seytxalilov, D. Shodiev, N. Nishonaliev va boshqalar). Bunda ta'lim-kasb-hunar dasturlari mazmunining qayta ko'rib chiqilishini tavsiflaydigan uch yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish o'quv dasturlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish bilan bog'liq. Bunda maqsad dasturlarni zarur deb hisoblangan yangi elementlar bilan to'ldirishdan iboratdir.

Aniq fanlar sohasida, xususan, informatika, atrof-muhitni o'rganish yoki texnologiyalarni rivojlantirish va ularning ta'siri bilan bog'liq bilimlarni kiritish bugungi kunda shu tariqa zarur deb hisoblanmoqda. Kamchiliklar, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fanlar sohasida ham aniqlanmoqda. Agar yosh yigit ekologik huquqiy, sotsiologik, psixologik va boshqa fanlarni o'zlashtirmasa, bu qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi barchaga ayondir. Tarix, adabiyot va til, jamiyatshunoslik, geografiya, ma'naviyat asoslari kabi fanlar vaqti-vaqti bilan ta'lim mazmuni va metodlarini qayta ko'rib chiqish zarurligini taqozo qilmoqda. Ta'lim tizimi javob berishga odatlanmagan masalalar, tarixiy voqealar yoki jamiyatning rivojlanishi natijasida kutilmaganda yuzaga keladi va tez hal etishni talab qiladigan muammolarni vujudga keltiradi.

Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi ahamiyati tug'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridanoq bildirilgan.

Kishilarning jamiyatda birga yashashi, o'zaro bir-birini qo'llab-quvvatlashi, ozchilikdan-ko'pchilikning afzalligi hakida payg'ambarimiz S.s.a.v.ning hadislarida: «Ikki kishi bir kishidan yaxshi, uch kishi ikki kishidan yaxshi, to'rt kishi uch kishidan yaxshi, ko'pchilik bilan birga bo'linglar. Tangri ummatlarini faqat to'g'ri yo'lda borishlikka birlashtiradi», - deyilgan.

Kishilarning boshiga yaxshi kun ham, yomon kun ham tushganda albatta maxalla, karindosh-urug' madadkor bo'ladi. Buni biz urf-odatlarimizda ko'rishimiz mumkin. M: hasharlar, to'yga tuyona bilan kelish va hakazo. Shaxsni shakllantirishning muhim omillari bo'lgan jamoa to'g'risidagi ta'limot axloq tarbiyasida muhim o'rinni egallaydi. Buning uchun bolalarni asta-sekin, avval bir necha kichik-kichik guruhlarda uyushtirib, so'ng birgalikda Biron ishni bajarishga tortish kerak. Bunda qo'yilgan maqsad bolalarga tushunarli bo'lishi kerak. Umumiy ish har bola ozgina bo'lsa ham ishtirok etadigan qilib tashkil etilishi lozim. Bunday xususiyatlarni tarbiyalashda san'at, bolalar bayramlari, birgalikdagi mehnat va faoliyatlarning tutgan o'rni kattadir.

Bolalar o'yinlari va mehnatining jamoa tusida bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Bular bolalarni birga harakat qilishga, o'z intilishlarini umumiy maqsadga yo'naltirishga, o'z ishini va maqsadini boshqarish ishi va harakatiga bo'ysungan holda boshqarishga o'rgatadi. Bola yoshlidan boshlab, o'zida boshqalar bilan, bolalar jamoasi bilan muloqotda, birgalikda bo'lishga ehtiyoj sezadi. Ammo kichkina bola jamoani o'zi tanlay olmaydi. U biron jamoaga sharoit taqozosi bilan kelib qoladi. Yashab turgan joydagi yoki ota-onasini ish joyidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnay boshlaydi. Bu tashkilotlarga bola o'z xoxishi bilan bormaydi. Shunga qaramay bola bu jamoaning qonun-qoidalariga buysinishi, uning tartiblariga rioya qilishi shart. Aks holda uni jamoa kechirmaydi. Natijada bola o'zi yashayotgan axloq, odob tajribalarini egallashga majbur bo'ladi. Shuning uchun buyuk mutafakkir A.Navoiy bola yoshligidan oqil va fozil kishilar jamoasida qatnashib, ularning suhbatlaridan baxramand bo'lishlarini tavsiya etadi.

Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan. U jamoada shakllangan eng muhim quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

- Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi.
- O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qiyamatini anglash.
- Uning a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik.
- Jamoaning har bir a'zosidagi do'stona birlik.
- Tartibli, ishchan harakatga yo'llovchi faollik.
- O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi. Bolalar o'zaro yashayotgan jamoaga bo'lgan munosabatiga qarab bir necha guruhga bo'linadi. Birinchi guruh ijobiy xulqli bolalar bo'lib, ularni jamoa a'zolari

hurmat qiladilar. Bu toifadagi bolalar jamoasining faollari bo'lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o'rnatishda ularga suyanadi.

Ikkinchi guruhga kiruvchilar faollar tashabbusiga qo'shiladi, ammo barqaror bo'lishadi. Uchinchi guruhdagilar tortinchoq bo'lib, o'yinda qatnashmaydi, mashg'ulotlarida ham sust bo'lishadi, bunday bolalarga alohida e'tibor va yordam berish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyalanadigan axloqiy xususiyatlar, xulk-atvor qoidalari orasida insonparvarlik muhim o'rin tutadi. Insonparvarlik hissi axloq normalari va qoidalarini o'rgatish asosida rivojlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Raximova D.N., Abulkosimov X., Abduraxmonov A. Boshqaruv tizimi va rahbar. – TDTU., 2004
2. O'ljayevna O. F. Et al. Innovatsion texnologiyalar yordamida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy salohiyati samaradorligini oshirish yo'llari //Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – t. 3. – №. 3. – s. 311-315.
3. Urinova F., Azizmatova z., Fazliddinova s. Didactic foundations for forming the professional competence of the future teacher. //Евразийский журнал академических исследований. – 2023. – т. 3. – №. 4 part 4. – с. 197-202.
4. O'rinova f. Innovative reforms in the modern preschool education system //Science and innovation. – 2023. – т. 2. – №. B2. – с. 557-561.
5. Уринова Ф. У. Особенности развития психологии ребёнка дошкольного и младшего школьного возраста //Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – с. 68-71.
6. Uljaevna u. F. Et al. Necessary conditions for the development of creative thinking in future teachers //Modern journal of social sciences and humanities. – 2022. – т. 4. – с. 444-448.
7. Uljayevna o. F. Et al. Bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy salohiyatini takomillashtirishda ilmiy faoliyatga tayyorlashning metodik tizimi //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 660-667.
8. Uljayevna u. F. Et al. Creolized texts, their features and possibilities //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – с. 668-673.
9. Uljayevna U. F. The activity of developmental centers in the formation of children's abilities /Science and innovation. – 2022. – т. 1. – №. B2. – с. 107-110.

10. Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi. The concept of cosmonics and its nature”. International conference on studies in humanity, education and sciences helsinki, finland.issn: 2249-7137 vol. 11, issue 2, january 10th 2022

11. Уринов Рустамбек Ёкубжонович. Специфика англоязычной технической документации в сфере информационных технологий. Science and innovation. International scientific journal volume 1 issue 7 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337

12. Urinova F.U. Gulomova D.I. The Structure of Professional Competencies of the Future Teacher of a Preschool Educational Institution. Web of Synergy:International Interdisciplinary Research Journal .Volume 2 Issue 5, Year 2023 ISSN: 2835-3013. С 139-143